

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV HO'JALIGI VAZIRLIGI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI

“AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”
kafedrası



IQTISODIY-MATEMATIK USULLAR VA MODELLAR

fanidan mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha

METODIK KO'RSATMA

Toshkent - 2013

Ushbu metodik ko'rsatma institut Ilmiy-metodik kengashining 14 iyun 2012 yil bo'lib o'tgan 10-sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Metodik ko'rsatma 5230100 – Iqtisodiyot (suv xo'jaligida) va 5230200 – Menejment (suv xo'jaligida) ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Metodik ko'rsatma “Iqtisodiy-matematik usullar va modellar” fanining namu-naviy dasturi asosida tuzilgan. U mazkur fan bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari va ularni bajarish bo'yicha metodik ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan.

Tuzuvchilar:

Z.S. Abdullaev, f.-m. f. n., dots.
G. Shodmonova, i.f.n., dots.
S.S. Mirzayev, t.f.n., dots.

Taqrizchilar:

B. Berkinov, TDIU Institutsional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi direktori, i.f.d., prof.
B. Xudoyorov, TIMI t.f.d., professor

KIRISH

Ta'lim tizimini isloh qilishda, tayyorlanadigan oliy ma'lumotli mutaxassislar oldiga qo'yilgan talablarda ular egallayotgan kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini to'liq tushunishi, soha faoliyatini aniqlaydigan fanlar muammolarini bilishi, ular bog'liqligini ko'ra olishi kerakligi talab qilinadi.

Jumladan, fanlarni o'zlashtirishda va bo'lg'usi mutaxassisni zamon talabida tayyorlashda mustaqil ishlarni sifatli bajarish juda ham muhim.

Talaba, o'qituvchi tomonidan berilgan nazariy bilimlarni passiv o'zlashtirmasdan, o'zlari o'qituvchilar tomonidan ko'rsatilgan bilimlar turlarini o'zlashtirishlariga imkon yaratilishi lozim. Bunday imkoniyatni, faqatgina mustaqil ish jarayoni berishi mumkin.

Mazkur metodik ko'rsatmada talabalarni fanni o'zlashtirish jarayonida mustaqil ishlarni tashkillashtirish, ularning tarkibi va mazmuni, bajarish va yakunlanishi tartibi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.